

UZBEK FOLK PROVERBS AND THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF GERMAN FOLK PROVERBS

Utanova Vazirahon Mahmudjon qizi

Pedagogical Institute of Andijan State University

1st year student of Uzbek language and literature

Annotation. This article explores the importance of Uzbek and German proverbs in society, their educational value in human life, and their similarities and differences.

Keywords: proverbs, rhythmic word, metaphor in proverbs, phraseology, stability, brevity, metaphor, translation, life, sprichwort, events.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI VA NEMIS XALQ MAQOLLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi

Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolda o‘zbek va nemis tillaridagi maqollarning qanchalik jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega ekanligi, ularning inson hayotida tarbiyaviy ahamiyati muhimligi, ularning o‘xshash va ziddiyatli tomonlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: maqollar, ritmik so‘z, maqollarda metafora, frazeologizm, barqarorlik, qisqalik, metafora, tarjima, hayotiy, sprichwort, hodisalar.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuy-g‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy- siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan va qo‘llanmoqda.

Tilshunoslar maqol va matallarning umumiy muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritishadi: qisqalik (ixchamlik), barqarorlik (ko‘payish qobiliyati), nutq bilan munosabatlar (maqollar va so‘zlar o‘zlarining tabiiy shakllarida faqat nutqda mavjudi), so‘z san‘atiga mansub (keng tarqalgan) va hakazo.

Ammo maqollar va maqollarni aniq ajratib turadigan qanday belgilar mavjud? Bu xususiyatlar allaqachon ko‘plab avlod olimlari tomonidan bir necha bor zikr qilingan. Bu maqollarning mazmun-mohiyatining umumiy tabiati va ularning ibratliligi, tarbiyalanishligiga bog‘liq. Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to‘xtalar ekanimiz, millatlarning o‘ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so‘z ochmay ilojimiz yo‘q, albatta. Chunki xalqning o‘ziga xos madaniyati, tarixi va urf-odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinda turadi.

Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining — jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma‘no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so'zlar borki, bu so'zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan. Bundan tashqari har bir millatning o'z diniy e'tiqodi, yashash uslubi, madaniyati, dunyoqarashi borki, ular folklorshunoslikda o'rganiladigan maqollarda qisman o'z aksini topadi. Millatni madaniyatini, xalqning o'zligini milliy qadriyatlarini ko'rsatuvchi, ifodalovchi omillardan biri bu shu xalqqagina xos bo'lgan xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlari va o'ziga xos durdonalari bo'lib shulardan xalq og'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Folklorshunos olimlar asrlar davomida maqollar yuzasidan o'z mamlakatlarining olis qishloqlariga ekspeditsiyalar uyushtirib kelishmoqda va xalq tilidan yildan yilga turli mavzularga doir bo'lgan takrorlanmas maqollarni jamlab kelishmoqda. Maqollar dunyo xalqlarining yillar davomida to'plangan dono hikmatlari namunalaridir. Maqollardan insonlar tarbiyaviy masalalarga xos bolgan tushunchalarni, ota bobolardan qolgan eng muhim boyluk hisobida e'zozlab foydalanib kelishadi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janrdir. O'zbek folklorshunosligida maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, bulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Nemis xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq og'zaki ijodining eng sara namunalaridan biri hisoblanadi. Ishimizning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda nemis xalq maqollarini nemis tilshunosligida o'rganilish tarixi juda muhim. Bu sohada ish olib borgan olimlar, va ularning qilgan ishlarini o'rganish mavzuyimizni yanada mustahkamlab beradi. Shu o'rinda quyida nemis olimlari tomonidan qilingan ishlarni keltirib o'tamiz.

Nemis tilida maqolga nisbatan qo'llanadigan "Sprichwort" termini, ushbu terminning kelib chiqish tarixi va u anglatgan ma'noni nemis olimi F.Zayler chuqur o'rgangan. U o'zining keng hajmdagi asari bo'lmish "Nemischa maqollar ta'limoti" asarini frazeologiya muammolariga bag'ishlaydi. U maqol so'zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: "Maqol o'rta nemis tilida ham "Sprichwort" bo'lgan va u "men gapiraman" ma'nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so'zi bo'lishi kerak. Ko'pgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil bo'lib, keyinchalik tez-tez shevalarda ko'rina boshlaganlar. Sh. Imyaminova va Sh. Kamolovlar nemis tilidagi maqollarning kelib chiqishida asosan qadimgi german mifologiyasi o'z ta'sirini o'tkazganligini, bundan tashqari xalqning din haqidagi qarashlari, ularning dostonlari, afsonalari asosida ham maqollar shakllana borganligini, shuningdek, qadimgi german urf-odatlarini maqollarning gullab-yashlashiga o'z ta'sirini o'tkazganligini ta'kidlab o'tadilar. Xuddi o'zbek adabiyoti singari nemis yozma adabiyotida ham yozuvchi, shoirlar nemis maqollaridan foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, buyuk nemis yozuvchisi Geotening — Faust asarida shunday misra keladi: Grau, teurer Freund, ist alle Theorie, Und Grun des Lebens goldner Baum (J. W. Goethe, Faust, S. 122)".

E.Vohidov tarjimasi:

Nazariya – quruq og'ochdir,

Ammo yashnar hayot daraxti. [Faust, b. 60]

Yuqoridagi qanotli so'z o'zbek tiliga Posho Ali Usmon tomonidan shunday tarjima qilingan:

Nazariya, do'stim, quruq, yo'q gashti,

Yashildir, hayotning oltin daraxti [Faust, S. 79]

Bunday misollarni yana ko'plab kuzatish mumkin. Ularda nemis xalqining o'ziga xos fikrlashi, ibratli hayot xulosalarini kuzatishimiz mumkin. Endi esa biz o'zbek va nemis xalq

maqollarida e'tiborga olingan tematik jihatlarni o'zaro qiyoslab chiqsak. Avvalo, o'zbek va nemis maqollarining tematik jihatdan solishtiradigan bo'lsak, ularda umuminsoniy qadriyatlar, fazilatlar va odatlar, falsafiy tushunchalar har ikki xalq maqollarining asosiy mavzusini belgilaydi. Masalan:

a) "Mein Nest ist das beste" (So'zma-so'z: Mening uyim eng yaxshisi), "Mein Haus ist mein Burg" (So'zma-so'z: Mening uyim-mening qalam) nemis maqoli va unga muqobil o'zbek maqoli "O'z uying-o'lan to'shaging" da maqolida vatan mavzusi;

b) "Wo Friede, da Glück" (Qayerda tinchlik bo'lsa, o'sha yerda baxt bor) nemis maqoli va unga muqobil o'zbek maqoli "Tinchlik baxt keltirar" da tinchlik mavzusi,

c) "Zeit ist Gold" (Vaqt bu pul), "Heute ist besser als zehn Morgen" (Bugun o'nta ertadan yaxshiroq), "Früh auf, gut Lauf" (Erta turganning yo'li ochiq) kabi nemis maqollar va unga muqobil "Vaqtin ketdi – naqding ketdi", "Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko'p turtinar" maqollarida vaqt, umrni qadriga yetish;

d) "Arbeit macht das Leben süß" (Mehnat turmushni shirin qiladi), "Erst die Arbeit dann das Spiel" (Avval ish, keyin o'yin) nemis maqollarida, o'zbekcha "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik" esa mehnatni ulug'lash;

e) "Einigkeit ist die stärkste Stadtmauer" (Birdamlik eng mustahkam devor), "Eintracht bringt Macht" (Hamjihatlik kuchga to'ldiradi) nemis maqollari va unga muqobil o'zbekcha — Kuch birlikda, — Hamjihatlik quvvat, birdamlik davlat maqollarida birlik, totuvlik mavzusi. Ko'rinib turganidek, maqollarning mavzu ko'lami juda keng. Ular qamrab olmagan jabha yo'q. Bu jihatdan har ikki xalq maqollari bir-biridan qolishmaydi. Bu holatni biz maqollar muqobilida yana kuzatamiz. Dunyodagi barcha xalqlar og'zaki ijodida maqollarchalik shakli va ifoda etayotgan, bildirayotgan mazmunichalik bir-biriga juda yaqin, hatto aynan bir xil bo'lgan janr yo'q. Bu holatni biz faqat maqollarda ko'rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida o'zbek va nemis maqollaridagi o'xshashliklarni ko'rib chiqsak.

Nemischa "Der Ton macht Musik" (Tovushlar musiqa yaratadi) maqolida tovushlar birgalikda birikgandagina bir ish(musiqa) chiqara olishi ma'nosi hayotiy o'xshatma orqali berilayotgan bo'lib, o'zbekcha "Kuch birlikda" yoki "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqoliga to'g'ri keladi. Shuningdek, yana bir nemischa — Begossene Hunde furchten das Wasser" (Cho'kkan kuchuk suvdan qo'rqar) maqoli o'zbekcha "Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar" maqoliga, nemischa "Der Appetit kommt beim Essen" (Ishtaha ovqat paytida keladi) maqoli o'zbekcha "Har ishning o'z vaqti bor", nemischa "Löwen fangen keine Mäuse" (Sherlar sichqon ovlamaydi) maqoli o'zbekcha "Teng tengi bilan tezak qopi bilan" maqoliga, "Den Esel erkent man an den Ohren und an den Worten der Toren" (Eshakni qulog'idan taniydilar, ahmoqni – so'zidan) maqoli o'zbekcha "Sen menga do'stingning kimligini ayt, men senga sening kimligingni aytaman" maqoli anglatgan ma'noni ifodalab, unga muqobil (ekvivalent) bo'la oladi. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Maqollarda o'ziga xos janr xususiyatlari, shakl va ma'no tovlanishlari, mavzular doirasining kengligi mavjud. Ularni o'qigan yoki eshitgan paytda o'ziga chorlaydigan shunday sehr borki, bu ularning o'ziga xos badiiyatidir. Ulardagi tovushdoshlik (alliteratsiya, assonans), ma'no ko'chishi (metafora, metanomiya, kinoya, majoz), badiiy tasvir vositalari (o'xshatish va sifatlash) kabilarning qo'llanishi maqollarning ta'sir doirasini yanada oshiradi, o'ziga maftun etadi. Qadimdan kishilar ma'naviyatini boyitib kelgan maqol, matal, naqlar o'zining betakror badiiyati, o'ynoqi ohangi bilan o'zidan keyin hujudga kelgan she'rlarga, qo'shiqlarga asos bo'ldi deyish mumkin. Chunki maqollar xoh nasriy, xoh she'riy shaklda bo'lmasin, ularda o'ziga xos ritm mavjud. Maqol she'rga "bosh unsur- ritmni" bergan, vazn va qofiya ham bevosita maqoldan o'zlashtirilgan, fikrni lo'nda, ixcham, mazmunli va ta'sirbaxsh tarzda aks ettirish jihatdan maqol va she'r o'rtasida umumiy yaqinlik mavjudligini ham sezish qiyin emas. Yana shuningdek, maqollarda xotiraga oson o'rnatadigan ramz va majozlar ham tez-tez uchraydiki, bu xususiyat she'r tabiyati uchun asosiy fazilatga ko'tarilgan.

Metafora – ko'chim (o'xshatish). Ko'chimning bir turi bo'lib, narsa- hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Metafora mohiyatan yashirin o'xshatish bo'lib, unda o'xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda, uning ma'nosini o'xshayotgan narsa (ya'ni uni ifodalayotgan so'z) bildiradi. Ushbu badiiy vosita maqollarda eng ko'p qo'llanuvchi vosita sanaladi. Misol uchun:

Nemis maqollari:

“Löwen fangen keine Mäuse” (Sherlar sichqon ovlamaydi) Bu nemis maqolda keltirilgan „Löwe — (Sher) so‘zi orqali hayot darajasi, obro‘yi yuqori insonning obrazi yotgan bo‘lsa, „Mäuse fangen — (sichqon ovlamoq) birikmasi orqali esa yuqori darajadagi, ushbu ishni qilishdan ancha yuqori insonning o‘ziga yarshmaydigan, qilsa uyat bo‘ladigan, ishonish ham mumkin bo‘lmagan ishi, ma’nosida kelmoqda. Agar sen o‘zingni sher-mard hisoblasang, sichqon ovlama, o‘zingga, yoshingga, insoniyligingga yarashadigan ishni qil. Aks holda nomingga dog tushurasan, kulguga qolasan. “Eine angelaufte Birne verdirbt den ganzen Korb” (Bir aynigan nok butun savatni aynitadi) Ushbu maqolda — angelaufte Birne ya’ni — aynigan nok bu — tarbiyasi, axloqi buzilgan, saviyasi yaxshi bo‘lmagan inson inson obrazi sifatida, — Korb ya’ni — savat esa insonlar jamoasi, to‘da, jamiyat ma’nosida kelmoqda. Ya’ni tarbiyasi yaxshi bo‘lmagan, axloqi yomon inson o‘zi kirgan jamoani ham buzishi, o‘ziga o‘xshatishi mumkinligi kuzatilgan hayotiy misol orqali berilmoqda. Ushbu maqolga muqobil bo‘lgan o‘zbek maqoli — Bir shaltoq buzoq butun podani buzadida — shaltoq sigir tarbiyasi, axloqi buzilgan, saviyasi yaxshi bo‘lmagan inson obrazida, — poda esa — insonlar jamoasi, to‘da, jamiyat ma’nosida kelmoqda. O‘zbek maqoli — Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmas maqolidagi — et va — tirnoq so‘zlari qarindosh-urug‘; ota-bola; aka-uka, tug‘ishganlar ma’nolarini bildiradi.

Xalq og‘zaki ijodining betakror shaklga va ma’noga ega bo‘lgan xalq maqollari uni yaratuvchi xalq singari qadim hamda betakrordir. O‘zining serjilo ma’nosi va badiiyati bilan kishilarni doimo o‘ziga rom etib kelgan. O‘z fikrlarini isbotlashda, hayot voqeeliklaridan xulosa chiqarishda esa tayanch vazifasini o‘tagan va o‘tab kelmoqda. Boisi ular xalqning zukko vakillari tomonidan tez-tez ishlatilib turiladi. —O‘z qadrini bilgan, so‘z qadrini bilar deydi dono xalqimiz. Istiqloq sharofati bilan o‘z qadriyatlarimizni yuksak darajaga ko‘tardik. Asarlarimizni to‘la holda o‘rganish, tahlil etish imkoniga ega bo‘ldik. Ammo ushbu imkoniyatdan to‘g‘ri va ma’suliyat bilan foydalanilsa, yuqorida ta’kidlangan, maqol to‘plamlarini nashr ettirishdagi kabi ma’suliyatsizlik, loqaydlik, bepisandlikholatlari yuz bermaydi. Zero, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan loqaydlik, e’tiborsizlik kishining avvalo o‘ziga, qolaversa, o‘z o‘tmishiga, uni yaratgan xalqqa bo‘lgan e’tiborsizlikdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Xalq so‘zi. 11.12.2012. 240(5660).
2. Butayev Z., Ismoilov Y., Karimov Sh. “Nemischa-o‘zbekcha lug‘at”. – T.: Fan, 2007.
3. Deutsches Sprichwörter-Lexikon. Herausgegeben von Karl Friedrich Wilhelm Wander. Wissenschaftliche Buchgesellschaft Darmstadt, 1964.
4. Imyaminova Sh. Kamolova Sh. Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘atining tuzish prinsiplari.// Leksikografiya va frazeografiyaning dolzarb muammolari(nazariya va amaliyot) mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2014.
5. Махмудова Н. Шарипова Н. Sprichwörter 101 Proverbs Пословицы Мақоллар. – Қ.: Нафас, 2008.
6. Bekiyeva, M.J.K. (2022). DEVELOPMENT OF LINGUOCULTUROLOGY AND INTERPRETATION OF LANGUAGE AND CULTURE IN MODERN LINGUISTICS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 93-102.
7. Бекиева, М. Ж. (2020). ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема*, (3), 104-115.
8. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani. -T.: 2001
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.